

QORAQALPOQ XALQI URUG'CHILIK TIZIMINING O'RGANILISHI

Ametova Ayjamal Kudaybergen qizi

ametovaayjamal@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18309528>

Annotatsiya

Mazkur maqolada qoraqalpoq xalqi urug'chilik tizimi, uning tarixshunoslikda o'rganilishi yoritilgan bo'lib, bu borada qilingan bir qator ishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlari: *qoraqalpoq urug'lari, aris, urug', tiyre, ko'she, T. A. Jdanko, on to'rt uriw, qon'irat uriwi, mang'it urug'i, qazayaqli urug'i, qayshili urug'i.*

Turkiy xalqlardan biri sanalgan qoraqalpoq xalqi o'z urug'chilik munosabatlariga ega va bu munosabatlar hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Tarixshunoslikda mazkur masalaning o'rganilishi qoraqalpoq xalqining etnogenez jarayonini, bu xalqning boshqa turkiy xalqlar bilan o'tmishdagi aloqalari va munosabatlarini tadqiq qilishda katta ahamiyatga egadir. XIX asrda yashagan qoraqalpoq shoiri Berdaq o'zining "Shejire" asarida qoraqalpoq urug'lari, ularning kelib chiqish tarixi haqida so'z yuritgan. Lekin, bu adabiy asar bo'lib, unda voqealar afsonalar va hikoyalar asosida yoritilgan.

Qoraqalpoq urug'chilik tizimini ilmiy asosda o'rganishning boshlanishi XX asr 50 yillariga to'g'ri keladi. Bu mavzu yuzasidan T. A. Jdanko¹, L. S. Tolstova², S. K. Kamalov³, N. P. Lobacheva⁴, A. Bekmuratova⁵, M. Davletiyarov⁶ singari olimlar ilmiy ish olib borganlar.

Mazkur maqolada qoraqalpoq urug'chilik tizimining XX asrda va mustaqillik yillarida tarixshunoslikda o'rganilishi, qilingan ishlarning yutuq va kamchiliklari, kelajakda o'rganilishi lozim bo'lgan masalalar haqida so'z boradi.

Qoraqalpoqlar – Amudaryo va Sirdaryo keng hududlari, Orolbo'yi va shimoliy Kaspiy dengizi hududlarida qadimgi va o'rta asrlarda yashagan va O'rta Osiyo, G'arbiy Sibir va Sharqiy Yevropa hududlari aholisi bilan doimiy muloqotda bo'lib kelgan turkiy tilli xalqdir.⁷

T. A. Jdanko qoraqalpoq xalqi urug'chilik tizimini ilmiy o'rganishni boshlagan dastlabki olimlardandir. Uning ma'lumotlariga asosan, qoraqalpoq xalqi urug'chilik tizimi asosi ikki qism,

¹ Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М.; Л.: «Издательство Академии наук СССР», 1950.

Жданко Т.А. Работы каракалпакского этнографического отряда в 1956 г. Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1954–1956 гг. М.: Издательство Академии наук СССР, 1959.

Жданко Т.А. Основные этапы этнической истории народов Средней Азии и Казахстана // Народы Средней Азии и Казахстана. М., 1962.

Жданко Т.А. Каракалпаки // Народы Средней Азии и Казахстана. М., 1962.

Жданко Т.А. Сведения о каракалпаках в России XVII в. // Приаралье в древности и средневековье. М., 1998.

² Толстова Л. С. Каракалпаки Ферганской долины (Историко-этнографический очерк). Нукус: Каракалпакия, 1959

Толстова Л. С. Исторические предания Южного Приаралья: К истории этнокультурных связей народов Арало-Каспийского региона. М.: Наука, 1984.

Толстова Л. С. Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. М.: Наука, 1980

³ С. К. Камалов. Каракалпаки в XVIII - XIX веках, Т., 1968

С. К. Камалов. Из истории взаимоотношений каракалпаков с другими народами Средней Азии и Казахстана в XVIII - начале XIX в. (в соавторстве), Т., 1988

⁴ Лобачева Н.П. Социальные институты древности в жизни современной семьи народов Средней Азии. Семья: традиции и современность. М.: Наука, 1990

Жданко Т.А., Лобачева Н.П. Семья у народов Средней Азии и Казахстана. Жданко (отв. ред) Семейный быт народов СССР. М.: Наука, 1990

⁵ Бекмуратова А. Быт и семья каракалпаков в прошлом и настоящем. Нукус: «Каракалпакия», 1970.

⁶ Давлетияров М.М. Көше – семейно-родственная группа каракалпаков. Вестник антропологии. 2018.

⁷ Баллиева Р. Каракалпакский этнос и традиционное природопользование. Moskva 2003 yil. 2-sahifa

“on to‘rt uriw” arisi va “qon‘irat” arisilariga bo‘lishdan boshlanadi. Arisdan keyingi bosqich “u‘lken uriw” (katta urug‘) bo‘lib, ular “qon‘irat” arisi ichida “shu‘llik” va “jawing‘ir”, “on to‘rt uriw” arisi ichida “qitay-qipshaq”, “keneges-mang‘it” katta urug‘lari sifatida bo‘lingan. Keyingi bosqich “uriw”, ya‘ni urug‘ bo‘lib, har bir katta urug‘ o‘z ichida bir necha urug‘larga bo‘lingan. O‘z o‘rnida urug‘lar “tiyre” deb nomlangan bo‘limlarga, “tiyre”lar esa “ko‘she” deb atalgan eng kichik birliklarga bo‘lingan⁸.

T. A. Jdankoning “Очерки исторической этнографии каракалпаков” asarida arislar, ularning o‘z ichida urug‘larga bo‘linishi, har bir urug‘ning o‘z tamg‘asi, shiori, urug‘larning yashagan hududlari haqida batafsil ma‘lumot berilgan. Aynan, T. A. Jdanko tomonidan qoraqalpoq urug‘larining bir butun jadvali tuzilgan. Shuningdek, Jdanko yuqoridagi asarida urug‘larning kelib chiqishi, shiori va tamg‘asi haqida ham har tomonlama ma‘lumotlarni tahlil qilgan holda, o‘z xulosasini keltirib o‘tgan. Masalan, “qayshili” va “qazayaqli” urug‘larining kelib chiqishini tahlil qiladi. Afsonalarga ko‘ra, “qitay” urug‘i dastlab bir hududda yashagan va ularning tamg‘asi yagona bo‘lgan, lekin bir qancha vaqt o‘tgach ularning bir qismi Buxoro xonligiga o‘tib qolgan. Buxoro xoni bayramga yuqoridagi urug‘dan Baybulat-shayx va Sunaq ismli kishilarni ham taklif qilib, kelgan odamlarga o‘ziga xos tamg‘a bergan va shu tamg‘a bilan ularning otlari belgilangan. Baybulat-shayxga “qaychi” tamg‘asi x, Sunaqqa esa “qaz ayaq” (g‘oz oyog‘i) ψ tamg‘alari berilgan va ularning avlodlari keyinchalik “qayshili” va “qazayaqli” deb atalib ketilgan. Jdanko ta‘kidlashicha, O‘rta Osiyo turkiy xalqlarining Xiva, Buxoro va Qo‘qon xonliklariga tegishliligi eng avvalo o‘sha xalqlar harbiylarining tegishli bo‘lgan davlat harbiylariga qo‘shilishidan boshlangan. Xon tomonidan biylarga tamg‘a berilishi va otlarining belgilanishi “Xiva xonlarining XIX asrga oid arxivi”dagi hujjatlarida keltirilgan Xiva navkarlarining shakllantirilishini eslatadi.⁹ Mazkur urug‘larning paydo bo‘lish davri haqida to‘xtalib o‘tib, Jdanko shunday yozadi: “bizga ma‘lumot berganlar “qazayaqli” urug‘ining genealogiyasini ayta turib, 11 avlodni (ata) sanadi. O‘rta Osiyo tarixiy adabiyotlariga ko‘ra, bir avlodni 25 yil deb oladigan bo‘lsak, qoraqalpoqlarning “qazayaqli” urug‘i bundan 275 yil oldin, ya‘ni XVII asrning 70-yillarida paydo bo‘lgan, degan xulosaga kelish mumkin.¹⁰”

Jdanko ishining yana bir ahamiyatli tomoni, u qoraqalpoq urug‘larining boshqa xalqlar bilan aloqasi bor tomonlariga ham to‘xtalib, tushuntirib o‘tadi. Mang‘it urug‘iga to‘xtala turib, quyidagi ma‘lumotlar beriladi: “Mang‘it urug‘ining bo‘linishi asosan qiziqarli. 1928 yilda Qozog‘istonni o‘rganish jamiyati ekspeditsiyasi ko‘p aholili mang‘it urug‘ining 3 “bo‘lim” (guruh)ga: aq (oq) mang‘it, qara (qora) mang‘it vat tay (toy) mang‘itga bo‘linishini aniqlashgan. Qiziqarli tomoni shundaki, buxorolik o‘zbek mang‘itlari ham 3 guruhga: aq-mang‘it, qara-mang‘it va toq-mang‘itga bo‘lingan. Bu bir xil nomli qoraqalpoq va o‘zbek urug‘larining qadimda tarixiy va etnik aloqalari bo‘lgan deyish mumkin.¹¹”

Jdankoning “Очерки исторической этнографии каракалпаков” asarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, unda qoraqalpoq urug‘larining hududiy taqsimlanishi, ular tarikibiga kirgan xo‘jaliklar va aholisi soni jadvallarda keltirilgan.

M. M. Davletiyarovning “Көше – семейно-родственная группа каракалпаков” asarida qoraqalpoq urug‘larining eng kichik bo‘limi bo‘lgan “ko‘she” yuzasidan tadqiqot olib borilgan.

⁸ Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М.; 1950. 37-sahifa

⁹ Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М.; 1950. 42-sahifa

¹⁰ Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М.; 1950. 42-sahifa

¹¹ Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М.; 1950. 50-sahifa

Yuqorida aytib o'tilganidek, "ko'she" qoraqalpoq urug'chilik tizimining eng kichik bo'limi bo'lib, u to'laligicha o'rganilmagan. Davletiyarov ta'kidlashicha, T. A. Jdanko ishlab chiqqan jadvalda "ko'she"lar to'la yoritilmagan. Misol tariqasida, jadvalda "baymaqli" urug'i 6 tiyrega: jaqanay, ayis, saspaq, u'yesh, nayman, ton'moyinga bo'lingan. U'yesh tiyresi esa o'z navbatida polatqorg'an va oqishqorg'an ko'shelariga bo'lingan. Mazkur jadvalda barcha tiyrelarning ko'shelarga bo'linishi ko'rsatilmagan bo'lib, bu haqida Jdankoning o'zi: "ko'she bo'limlarining sonini aniqlash imkoni yo'q, chunki ular mayda hududiy guruhlar bo'lib, ularning nomlarini odatda ular yashaydigan hududga borib bilib olish mumkin, har bir ovulda ko'shelar har turli", deya ta'kidlagan¹².

M. Davletiyarov tadqiqotiga ko'ra, ko'shelarning nomlanishi asosan bir shaxsdan boshlagan bo'lib, o'sha shaxsning avlodlari keyinchalik uning nomi ostida qarindosh urug'chilik aloqlarini olib borganlar. Asosan, bu nomlar shaxsning belgilari, faoliyat turi yoki tabiatiga bog'lab qo'yilgan. Xalq ichida aytilishicha, bunday nomlar asosan o'sha urug'ga kelin bo'lgan kelinchaklar tomonidan qo'yilgan. Qoraqalpoq xalqi urf-odatlariga ko'ra kelinlar erining qarindoshlarini ismi bilan chaqirishi ta'qiqlangan bo'lib, ularga nom berishadi. Aynan shunday nomlar keyinchalik ko'she nomlariga aylangan bo'lishi mumkin.

M. M. Davletiyarov ko'shening urug'chilik tizimidagi ahamiyatiga e'tibor qarata turib, aynan mazkur birlikda yaqin qon qarindoshlar birlashganligini alohida ta'kidlaydi. Qoraqalpoqlarning qarindoshlik aloqalari haqida ma'lumot bera turib, quyidagilar keltiriladi: "qon qarindoshlar yaqin va uzoqqa bo'linadi. Jaqin tuwisqan - eng yaqin qarindoshlar sifatida uchinchi avlodgacha bo'lgan qarindoshlar sanaladi. Uchinchi avloddan keyingi qarindoshlar uzoq qarindoshlar hisoblangan, yaqin qarindoshlar bilan bir ovulda yashab, bir xil turmush tarzi kechirganlar."¹³

Qoraqalpoq urug'chilik tizimida oila qurish masalasi ham mazkur asarda ko'rilganligi ahamiyatga molikdir. Qoraqalpoq, o'zbek, qozoq va boshqa qardosh xalqlarda yettinchi ajdodigacha bilish (jeti ata) an'anasi mavjud bo'lib, bu oila qurish an'alarini saqlash uchun ham qo'llanilgan degan fikrlar ham bor. Ya'ni, yettinchi avloddan keyin qarindoshlar o'rtasida nikohga ruhsat berilgan. Lekin, qoraqalpoq urug'chilik tizimining ahamiyatli jihati shundaki, bir urug'ga mansub bo'lgan erkak va ayol turmush qurishi ta'qiqlanadi. Unga ko'ra bir urug'ga mansub shaxslar qancha avlod o'tsa ham qarindosh hisoblanishadi va ular o'rtasida oila qurilishi mumkin emas. Bu an'ana – qonun hozirgacha amal qilib keladi.

M. M. Davletiyarov mazkur ishida ko'sheni har tomonlama yoritishga harakat qilgan va bu mayda urug'chilik bo'linmasining hududiylik jihatlariga ham to'xtalgan. Unga ko'ra, ko'she dastlab keng hududga ega bo'lgan va aholisi zichligi bilan ma'lum bo'lgan. Lekin, o'tgan asrning o'rtalariga kelib ko'she aholisi ma'lum hududda tig'iz yashashi jihati yo'qola borgan. Hozirgi kunga kelib esa, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik vaziyatlar tufayli bir ko'shega mansub bo'lgan aholining bir hududda yashashi unchalik kuzatilmaydi, "ko'she" termini bugungi kunda hududiy-qo'shniçilik xarakterida qo'llaniladi.

Hozirda jamiyat a'zolarining barchasi bir ko'shega tegishli bo'lgan hududlarni uchratish qiyin. Lekin, oz sonligiga qaramasdan, bunday ovullar uchrab turadi. Masalan, Qarao'zek

¹² Давлетияров М.М. Көше – семейно-родственная группа каракалпаков. Вестник антропологии. 2018. 87-sahifa

¹³ Давлетияров М.М. Көше – семейно-родственная группа каракалпаков. Вестник антропологии. 2018. 87-sahifa

tumanida Teristamg'ali ovuli mavjud bo'lib, unda faqat tamg'ali urug'ining shomaq tiyresiga mansub aholi yashaydi va ularning barchasi bir-biriga yaqin qarindosh hisoblanadi.¹⁴

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qoraqalpoq xalqi urug'chilik tizimi murakkab bo'lib, tarixshunoslikda hali ham tadqiq qilinishi zarur masaladir. Yuqorida ma'lumot berilgan va tahlil qilingan ishlarda har tomonlama va ko'p ma'lumotlar berilganligiga qaramsadan, ma'lum jihatlar to'la o'rganilmagan. Xususan, Jdankoning asarida urug'larning mayda bo'limlari batafsil tadqiq qilinmagan, ular haqida deyarli ma'lumotlar yo'q. Globallashuv jarayoni shiddat bilan borayotgan bir davrda, har bir xalq, millatning o'ziga xos belgilarini saqlab qolish, ular haqida ilmda joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, qoraqalpoq urug'chilik tizimining eng mayda bo'limlarini joylarga borib o'rganish, mahalliy aholidan bu haqida ma'lumotlar to'plash va tarixiy manbalar asosida tahlil qilish fan oldida turgan vazifalardan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Жданко Т.А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. М.; Л.: «Издательство Академии наук СССР», 1950.
2. Жданко Т.А. Работы каракалпакского этнографического отряда в 1956 г. Полевые исследования Хорезмской экспедиции в 1954–1956 гг. М.: Издательство Академии наук СССР, 1959.
3. Жданко Т.А. Основные этапы этнической истории народов Средней Азии и Казахстана // Народы Средней Азии и Казахстана. М., 1962.
4. Жданко Т.А. Каракалпаки // Народы Средней Азии и Казахстана. М., 1962.
5. Жданко Т.А. Сведения о каракалпаках в России XVIII в. // Приаралье в древности и средневековье. М., 1998.
6. Толстова Л. С. Каракалпаки Ферганской долины (Историко-этнографический очерк). Нукус: Каракалпакия, 1959
7. Толстова Л. С. Исторические предания Южного Приаралья: К истории этнокультурных связей народов Арало-Каспийского региона. М.: Наука, 1984.
8. Толстова Л. С. Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. М.: Наука, 1980
9. С. К. Камалов. Каракалпаки в XVIII - XIX веках, Т., 1968
10. Бекмуратова А. Быт и семья каракалпаков в прошлом и настоящем. Нукус: «Каракалпакия», 1970.
11. С. К. Камалов. Из истории взаимоотношений каракалпаков с другими народами Средней Азии и Казахстана в XVIII - начале XIX в. (в соавторстве), Т., 1988
12. Лобачева Н.П. Социальные институты древности в жизни современной семьи народов Средней Азии. Семья: традиции и современность. М.: Наука, 1990
13. Жданко Т.А., Лобачева Н.П. Семья у народов Средней Азии и Казахстана. Жданко (отв. ред) Семейный быт народов СССР. М.: Наука, 1990
14. Баллиева Р. Каракалпакский этнос и традиционное природопользование. М.: 2003.
15. Давлетияров М.М. Көше – семейно-родственная группа каракалпаков. Вестник антропологии. 2018.

¹⁴ Давлетияров М.М. Көше – семейно-родственная группа каракалпаков. Вестник антропологии. 2018. 89-sahifa